

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

JIZZAX VILOYATI DO'STLIK VA MIRZACHO'L TUMANLARIDA IJTIMOYIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASI: QIYOSIY TAHLIL (2016–2025)

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi

Guliston davlat universiteti, doktorant.

e-mail: umarqulovagulcheroy@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-2142-5556>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Jizzax viloyatining Do'stlik va Mirzacho'l tumanlari misolida O'zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilgan islohotlarning 2016–2025-yillardagi natijalari qiyosiy tahlil qilinadi. Davlat statistikasi ma'lumotlari asosida demografik ko'rsatkichlar, ish haqi darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlaridagi o'zgarishlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy rivojlanish, Harakatlar strategiyasi, "Obod qishloq", demografiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, Do'stlik tumani, Mirzacho'l tumani.

ДИНАМИКА СОЦИАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В ДУСТЛИКСКОМ И МИРЗАЧУЛЬСКОМ РАЙОНАХ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ (2016–2025)

Умаркулова Гулчирой Файзулла кизи

Гулистанский государственный университет, докторант.

Аннотация.

В данной статье на примере Дуствликовского и Мирзачульского районов Джизакской области проводится сравнительный анализ результатов реформ в социальной сфере Узбекистана за 2016–2025 годы. На основе данных государственной статистики исследуются демографические показатели, уровень заработной платы, а также изменения в системах образования и здравоохранения.

Ключевые слова: социальное развитие, Стратегия действий, «Обод кишлок», демография, образование, здравоохранение, Дуствликовский район, Мирзачульский район.

DYNAMICS OF SOCIAL INDICATORS IN THE DUSTLIK AND MIRZACHUL DISTRICTS OF JIZZAKH REGION: A COMPARATIVE ANALYSIS (2016–2025)

Umarqulova Gulchiroy Fayzulla qizi

Gulistan State University, Doctoral Student.

Abstract.

This article provides a comparative analysis of the results of social sector reforms implemented in Uzbekistan from 2016 to 2025, using the Dustlik and Mirzachul districts of Jizzakh Region as case studies. Based on official state statistics, the study examines demographic indicators, wage levels, and changes in the education and healthcare systems.

Keywords: social development, Action Strategy, "Obod Qishloq," demography, education, healthcare, Dustlik District, Mirzachul District.

Kirish. O'zbekistonda 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mamlakatning barcha hududlarida aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Ushbu islohotlar nafaqat yirik shahar markazlarini, balki qishloq va chegara hududlaridagi tumanlarni ham qamrab olmoqda. Mamlakatimizda olib borilgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining joriy etilishi yurtimiz ravnaqini yangi bosqichga olib chiqdi. Jizzax viloyatining o'ziga xos geografik va ijtimoiy xususiyatlarga ega hududlari hisoblanadigan Do'stlik va Mirzacho'l tumanlarida ham islohotlarning samarali natijalarini ko'rish mumkin.

Do'stlik tumani 1970-yil 16-oktabrda tashkil etilgan bo'lib, 450 kv. km maydonda joylashgan va 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 71,9 ming aholiga ega [1]. Mirzacho'l tumani esa Jizzax viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, 57,1 ming kishilik aholisi bilan viloyatning o'ziga xos demografik mintaqasini tashkil etadi [2].

Ushbu tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida Do'stlik va Mirzacho'l tumanlarida 2016–2025-yillar davomida ijtimoiy sohadagi o'zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish hamda davlat siyosati samaradorligini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

O'zbekistondagi ijtimoiy islohotlarni tahlil qiluvchi ilmiy ishlar so'nggi yillarda sezilarli darajada ko'paydi. Xususan, mustaqillik davri ijtimoiy rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotlarda asosan umummamlakat va viloyat darajasidagi ko'rsatkichlar o'rganilgan, ammo tuman darajasidagi qiyosiy tahlillar kamroq uchraydi.

A. S. Soliyevning hududiy rivojlanish va aholi geografiyasiga oid tadqiqotlarida hududlarning ijtimoiy rivojlanish omillari yoritilgan bo'lsa-da, Do'stlik va Mirzacho'l tumanlari misolida yetarlicha o'rganilmagan [3]. J. Begimqulovning Jizzax viloyatidagi ijtimoiy-demografik o'zgarishlar haqidagi tadqiqotlarida viloyat miqyosidagi jarayonlar yoritilgan bo'lsa-da, mazkur tumanlar o'zaro qiyosiy tahlil etilmagan [4]. Do'stlik va Mirzacho'l tumanlaridagi ijtimoiy o'zgarishlarni

bevosita o'rganuvchi ilmiy ishlar hali yetarli darajada mavjud emas — bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, statistik tahlil va dinamik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba bazasini Jizzax viloyati statistika boshqarmasining rasmiy axborotnomalari tashkil etadi. Do'stlik tumanining 2016–2018-yillardagi va 2025-yildagi, Mirzacho'l tumanining 2017–2019-yillardagi va 2025-yildagi ko'rsatkichlaridan statistik tahlil uchun foydalanildi.

Tadqiqot uchun asosiy ijtimoiy ko'rsatkichlar to'rt yo'nalish bo'yicha tanlandi: demografiya (aholi soni, tabiiy o'sish, migratsiya), bandlik va ish haqi, ta'lim tizimi, sog'liqni saqlash tizimi. Har bir yo'nalish bo'yicha ikki tumanning ko'rsatkichlari bir-biri bilan va Jizzax viloyati o'rtacha ko'rsatkichlari bilan solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat siyosati: islohotlarning huquqiy asosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi" ijtimoiy sohani isloh qilishning yangi bosqichini belgilab berdi [5]. Uchinchi yo'nalish — ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'yicha ta'lim tizimi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish [6], shuningdek, sog'liqni saqlash tizimlarini modernizatsiya qilish [7] va aholining turmush sifatini yaxshilashni ustuvorlik sifatida e'lon qildi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-martdagi PQ-3620-son Qarorida tasdiqlangan "Obod qishloq" dasturi qishloq hududlarida infratuzilmani rivojlantirishga qaratildi. Do'stlik va Mirzacho'l tumanlari ham ushbu dastur doirasida maktablar, tibbiyot punktlari va madaniyat markazlarini ta'mirlash bo'yicha qator loyihalarni amalga oshirdi [8]. 2019-yildan boshlangan "Obod mahalla" dasturi esa mahalla darajasida ijtimoiy muhitni yaxshilashga yo'naltirildi.

Demografik o'zgarishlar

Do'stlik tumanida aholi soni 2016-yilgi 62,1 ming kishidan 2026-yil 1-yanvar holatiga 71,9 ming kishiga yetdi. Natijada o'n yil ichida 15,8 foizlik o'sishni ko'rish mumkin. Mirzacho'l tumanida ham xuddi shunday natijaga erishildi. Mazkur tumanda 49,3 ming kishidan 57,1 ming kishiga o'sish kuzatildi [9].

1-jadval. Aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Do'stlik 2016	Do'stlik 2025	Mirzacho'l 2017	Mirzacho'l 2025
Aholi soni (ming kishi)	62,1	71,9	49,3	57,1
Tug'ilganlar (kishi)	1 431	1 396	949	1 106
Vafot etganlar (kishi)	230	270	162	175
Tabiiy o'sish (kishi)	1 201	1 126	787	931
Nikohlar	501	419	409	303
Ajralishlar	—	82	41	74
Migratsiya saldo	-206	-213	+369	-113

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko'rinadiki, Do'stlik tumanida tug'ilganlar soni 2025-yilda 2016-yilga nisbatan biroz kamaygan (1431 tadan 1396 taga), bu umummilliy demografik tendensiya bilan bog'liq. Mirzacho'l tumanida esa tug'ilganlar soni 16,5 foiz o'sdi — 949 nafardan 1106 nafarga oshgan. Har ikkala tumanda ham migratsiya jarayonlari past ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu ish o'rinlari yetishmasligi muammosini ham ko'rsatadi.

Bandlik va ish haqi darajasi

Ish haqi dinamikasi mamlakatda olib borilgan mehnat haqi siyosatining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Biroq ikkala tumanda ham ish haqi viloyat o'rtachasidan past bo'lib kelmoqda.

2-jadval. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi dinamikasi (ming so'm)

Davr	Do'stlik tumani	Mirzacho'l tumani	Jizzax viloyati
2016–2017	966	1 150	—
2018–2019	1 335	1 699	—
2024	2 987,4	3 017,0	3 972,5
2025	3 576,0	3 453,2	4 786,0

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2016-yildan 2025-yilga kelib Do'stlik tumanida ish haqi 3,7 barobar, Mirzacho'l tumanida 3,0 barobar o'sdi. Shunga qaramasdan, 2025-yilda Do'stlik tumanida ish haqi viloyat o'rtachasining 74,7 foizini, Mirzacho'l tumanida esa 72,2 foizini tashkil etdi [10]. Bu holat ushbu hududlarda yirik ish beruvchi korxonalar kamligidan dalolat beradi.

Ta'lim sohasidagi islohot natijalari

2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5105-son Farmoni asosida maktabgacha ta'limni kengaytirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Mirzacho'l tumanida MTM bolalar soni 2017–2019 yillar oralig'ida 2,6 barobarga o'sdi, ya'ni bu ko'rsatkich 971 tadan 2513 nafarga oshgan.

3-jadval. Ta'lim sohasi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Do'stlik 2016	Do'stlik 2018	Mirzacho'l 2017	Mirzacho'l 2019
MTM soni	16	16	14	17
MTM bolalar soni	1 417	1 405	971	2 513

Umumta'lim o'quvchilari	10 458	8 702	8 471	9 508
KHK o'quvchilari	3 027	1 958	1 316	216

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Kasb-hunar kollejlari tizimidagi islohotlar natijasi quyidagicha bo'ldi: 11 yillik umumta'limga o'tish natijasida ikkala tumanda ham kasb-hunar kollej o'quvchilari sonining keskin kamayishiga olib keldi. Bu maqsadli siyosat bo'lib, o'quvchilarning to'liq umumta'lim olishini ta'minladi [11].

Sog'liqni saqlash tizimi

Sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son Farmoni asosida amalga oshirildi. Mirzacho'l tumanida shifoxona o'rinlari soni (240–250) Do'stlik tumaniga nisbatan (150) ko'proq bo'lishiga qaramasdan, shifokorlar soni kamroqligi aniqlandi.

4-jadval. Sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Do'stlik 2016	Do'stlik 2018	Mirzacho'l 2017	Mirzacho'l 2019
Shifoxona soni	1	1	3	3
O'rinlar soni	150	150	250	240
Shifokorlar	102	81	62	60
O'rta tibbiy xodimlar	524	483	457	549
Davolangan bemorlar	7 748	8 739	9 579	6 806

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'rta tibbiyot xodimlarining soni Mirzacho'l tumanida 2017-yilgi 457 nafardan 2019-yilgi 549 nafarga o'sdi. Do'stlik tumanida esa 524 nafardan 483 nafarga kamayishi malakali kadrlar taqchilligidan dalolat beradi [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR. Amalga oshirilgan qiyosiy tahlil asosida quyidagi xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, O'zbekistonda 2016-yildan boshlangan ijtimoiy islohotlar — Harakatlar strategiyasi, "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari — Do'stlik va Mirzacho'l tumanlarida ijtimoiy ko'rsatkichlarning sezilarli yaxshilanishiga zamin yaratdi. Maktabgacha ta'lim qamrovining 2,6 baravarga kengayishi, ayniqsa, olib borilgan islohotlarning natijadorligini asoslaydi.

Ikkinchidan, ish haqi darajasi o'sishida bo'lsa-da (3,0–3,7 baravar), ikkala tumandagi ko'rsatkich viloyat o'rtachasidan 25–28 foiz past bo'lib qolmoqda. Bu esa mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha yanada mukammal va ko'proq qo'shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, manfiy migratsiya jarayonlari ikkala tumanda ham saqlanib qolmoqda. Mazkur jarayonlarni yaxshilash uchun aholini mahalliy iqtisodiyotga jalb etish, yoshlarga mo'ljallangan dasturlarni kengaytirish ishlarini yanada jadal amalga oshirish samarali bo'lishini ko'rish mumkin.

To'rtinchidan, sog'liqni saqlash sohasida shifokorlar soni yetarli bo'lmagan Do'stlik tumanida tibbiy kadrlar tayyorlash va jalb etishning maxsus mexanizmlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Xulosa qilganda, tadqiqot natijalari Do'stlik va Mirzacho'l tumanlarida ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlarining o'sishi davlatning hududiy rivojlantirish siyosati bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Biroq rivojlanish sur'atlari va natijadorlik darajasi tumanlarning iqtisodiy-demografik salohiyati hamda infratuzilma holatiga qarab farqlangan. Shu jihatdan cho'l hududlarida ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashda yagona yondashuv emas, balki hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial rivojlanish modeli muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Milliy statistika qo'mitasi. Do'stlik tumani statistika bo'limi. *Ijtimoiy-iqtisodiy holat axborotnomasi (2025-yil yanvar-dekabr)*. – Do'stlik, 2026.
2. Milliy statistika qo'mitasi. Mirzacho'l tumani statistika bo'limi. *Ijtimoiy-iqtisodiy holat axborotnomasi (2025-yil yanvar-dekabr)*. – Mirzacho'l, 2026.
3. Soliyev A. S. Hududiy islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy natijadorligi: taqqosiy tahlil va amaliy keyslar. – [Manba](#)
4. Begimqulov J. Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatida yuz bergan ijtimoiy-demografik o'zgarishlar xususida. – [Manba](#)
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". – [Manba](#)
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5105-son Farmoni. "Maktabgacha ta'lim tizimini 2017–2021-yillarda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". – [Manba](#)
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlari to'g'risida". – [Manba](#)
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-martdagi PQ-3620-son Qarori. "Obod qishloq" davlat dasturi to'g'risida. – [Manba](#)
9. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. *Mirzacho'l tumanining 2017–2025-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to'g'risida axborotnoma*. – Jizzax, 2026.
10. Jizzax viloyati statistika boshqarmasi. *Do'stlik tumanining 2017–2025-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati to'g'risida axborotnoma*. – Jizzax, 2026.
11. Jizzax viloyati Do'stlik tumani hokimligi. – [Rasmiy manba](#)
12. Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani hokimligi. – [Rasmiy manba](#)